

O'ZBEKISTONDA BALIQCHILIK TARMOG'I HOLATINING TAHLILI

Maxamatrixsiyeva Husniya Muzaffar qizi

Abu Ali ibn Sino nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada O'zbekistonda baliqchilikni rivojlantirishning zaruriyati, so'nggi yillardagi ko'rsatkichlari o'rganilib, tahlil etilgan va zaruriy xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: agrar sektor, baliqchilik, normativ hujjatlar, ovlangan baliqlar.

Bugungi kunda dunyoda olti milliarddan ortiq aholi bor. Yildan yilga aholi soni ortishi, ya'ni demografik o'sish hisobiga aholini ratsional oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash zaruriyati tug'ilmoqda.

Shundan kelib chiqib, O'zbekistonda ham aholini go'sht mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashda chorva va parranda go'shti bilan birgalikda baliq mahsulotlarini ham yetishtirishni rivojlantirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, baliqchilik va baliq ovlash xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, ushbu sohada yer va suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish hamda intensiv texnologiyalarning keng joriy etilishini ta'minlash maqsadida Respublikada bir qator qonun xujjatlari kuchga kirgan, jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29-avgust 2020-yildagi "Baliqchilik tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4816-sonli qarori.; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6-noyabr 2018-yildagi "Baliqchilik sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi"gi PQ-4005-sonli qarori va boshqalar.

Jumladan, respublikada baliqchilik sohasini yanada rivojlantirish, baliq mahsulotlari turlarini ko'paytirish, eksport salohiyatini oshirish, mavjud havzalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish, intensiv texnologiyalar asosida baliq yetishtirish hajmlarini ko'paytirish hamda baliqchilik xo'jaliklarining ozuqa bazasini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13 yanvar 2022 yildagi "Baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-83-sonli qarori qabul qilindi. Qarorda xonadonlarda baliq yetishtirish masalasi ko'tarilgan bo'lib, tadbirkorlikka istak bildirgan aholini baliqchilik xo'jaliklari baliq yetishtirishga o'qitadilar va yetishtirilgan mahsulotni ham sotib olishlari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, mahalla fuqarolar yig'ini ham mazkur tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlaydilar. Bu bilan oilalarda tadbirkorlik faoliyati yo'lga qo'yiladi, qo'shimcha daromad va ish o'rni yaratiladi.

Yurtimizda amalga oshirilgan islohotlar natijasida, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaliklarida yetishtirilgan mahsulotlarda yillar kesimida oʻsish kuzatildi. 1-jadval maʼlumotlarini kuzatsak, jami respublika koʻrsatkichi 2017 yilda 154 369, 4 mlrd. soʻmga teng boʻlgan boʻlsa, 2022 yilda 362 898,0 mlrd. soʻmni, yaʼni 2,5 martaga koʻpayganligini koʻrsatmoqda. Bu esa yurtimiz aholisini zaruriy oziq–ovqat mahsulotlari bilan muntazam taʼminlab kelinayotganligini koʻrsatadi.

1-жадвал

Oʻzbekiston Respublikasi hududlari kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. soʻm

Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Oʻzbekiston Respublikasi	154 369,4	195 095,6	224 265,9	261 892,2	317 027,6	362 898,0
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	4 977,3	6 995,5	8 769,3	10 532,2	12 340,9	14 374,0
Andijon	15 950,0	20 183,9	24 314,9	27 056,8	31 582,5	37 246,9
Buxoro	13 178,6	17 334,2	19 436,2	24 367,5	29 170,4	33 653,0
Jizzax	9 194,9	11 825,6	14 105,9	16 908,8	21 202,8	24 203,6
Qashqadaryo	14 761,6	17 685,8	20 415,1	24 510,2	29 232,8	33 549,2
Navoiy	6 850,7	8 685,8	9 934,2	11 908,1	15 224,9	16 442,0
Namangan	11 398,3	13 944,1	16 832,2	19 827,9	23 654,5	27 640,8
Samarqand	22 308,7	26 585,9	29 294,7	33 759,4	40 329,6	42 088,9
Surxondaryo	11 837,2	15 394,4	18 152,0	19 874,5	23 881,8	27 427,5
Sirdaryo	5 490,0	6 183,7	7 984,8	8 709,5	10 485,2	12 606,9
Toshkent	16 378,5	19 541,2	21 632,7	25 410,5	31 371,1	35 354,9
Fargʻona	12 692,3	18 007,7	18 946,3	22 069,1	28 223,2	33 723,6
Xorazm	9 351,3	12 727,8	14 447,6	16 957,7	20 327,9	24 586,7

Manba: stat.uz sayti maʼlumotlaridan foydalanildi.

Quyida keltirilgan 2-jadvalda respublikada 2017-2022 yillar oraligʻida ovlangan baliqlar toʻgʻrisida maʼlumot berilgan. Respublikada jami ovlangan baliqlar 2017 yilda 84 mung tinnaga yaqin boʻlgan boʻlsa 2022 yilda 185 ming tonnadan otgan, yaʼni 2 barobardan koʻp oʻsish kuzatilgan. Bu ham boʻlsa toʻri ilib borilgan islohotlar natijasidir. 2022 yil yakunlari boʻyicha eng koʻp ovlangan baliqlar Xorazm, Andijon va Fargʻona viloyatlariga toʻgʻri kelgan. Bu viloyatlar peshqadamligi hududning mavjud tabiiy joylashuvidan, aholinigi koʻpligi hisobiga talabning yuqoriligi va bunga javoban tadbirkorlik taklifining mavjudligidan kelib chiqqan deb xulosa qilishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasida ovlangan baliqlar yillar kesimida, tonna

Hududlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston Respublikasi	83 900,4	90 984,3	121 717,0	144 102,6	171 933,1	185 274,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	6 157,2	9 856,7	12 847,0	14 441,9	637,3	385,9
Andijon	4 081,0	10 224,0	11 048,6	17 414,6	20 178,1	21 554,7
Buxoro	3 399,7	3 737,9	5 798,3	7 082,0	10 877,0	10 043,1
Jizzax	13 837,6	7 151,5	10 314,9	13 117,9	13 687,2	15 027,8
Qashqadaryo	4 769,6	4 796,1	5 714,4	5 441,5	5 323,3	5 452,6
Navoiy	12 565,9	10 882,4	11 997,6	12 458,2	12 769,0	14 076,9
Namangan	5 218,0	5 360,0	6 931,6	8 740,2	11 997,1	14 587,9
Samarqand	3 435,3	4 006,1	8 974,1	12 725,1	19 534,9	17 262,2
Surxondaryo	3 876,0	3 815,9	3 610,8	4 497,2	5 476,9	6 560,5
Sirdaryo	2 222,4	5 375,9	9 994,1	5 551,1	6 434,7	7 214,1
Toshkent	8 155,1	9 867,2	7 896,6	9 726,9	13 239,0	19 289,5
Farg'ona	6 781,6	6 430,3	10 567,6	11 151,7	12 155,7	12 494,9
Xorazm	9 401,0	9 480,3	16 021,4	21 754,3	27 622,9	30 324,3

Manba: stat.uz sayti ma'lumotlaridan foydalanildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekistonda baliqchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi taklif va xulosalarni keltiramiz:

1) O'zbekistonda baliqchilikni rivojlantirish uchun tadbirkorlarga yer va imtiyozli kreditlar ajratish tizimini soddalashtirish.

2) Ilmiy laboratoriyalarda baliqlarni boqish va ko'paytirish bo'yicha ilmiy izlanishlarni yanada ko'paytirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash.

3) Baliqlarni yetishtirishda yer osti suvlaridan foydalanish yo'llarini o'rganish va amaliyotda qo'llashni keng targ'ib etish.

4) O'zbekistonda baliqchilikni rivojlantirish hamda baliqlarni qayta ishlashni yo'lga qo'yish, ya'ni baliq moyi, baliq ikresi ko'rinishida.

